




YANGI ASR
UNIVERSITETI



“YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya

25-noyabr 2023 yil

Toshkent 2023

Shoirona mahorat tufayli lirik qahramonning o'sha ondagi ruhiyati, kechinmalarini his etamiz, chunki Abdulla Oripov she'riyati yuqumli, ta'sirchan. Har bir narsa, yaratiq lirik qahramonga qishlog'i bilan bog'liq qalb kechinmalarini, bolalik xotiralarini ko'z o'ngida gavalantiraveradi, ko'zga ko'rinmas tuyg'u, ya'ni mehr qishloqqa tortaveradi, qolaversa, ulkan orzu-maqсадlar qilganda oq yo'l bergan ham ona-qishloqdir va lirik qahramon qalbida kechayotgan kechinmalarni, ko'ngil tug'yonlarini she'riy misralarga jo aylaydi.

Alibek Rustamov esa "So'z xususida so'z" nomli kitobida she'rning lug'aviy ma'nosiga quyidagicha ta'rif beradi: "She'r" ning lug'aviy ma'nosi "tuyg'u" bo'lib, urfda asosan hissiyot va qisman tafakkur, qisqacha qilib aytganda, zavq natijasida vujudga kelgan badiiy so'zlamni bildiradi. She'r shoir zavqining maxsus qoidalariga bo'ysungan nutqiy ifodasidir. Shoir o'z zavqini badiiy so'z bilan ifodalash san'atini egallagan zavq ahlidir". Darhaqiqat, Abdulla Oripovning so'zdan mas'uliyat bilan foydalanish, so'zni jozibali va o'rinli qo'llash mahorati tengsizdir, qolaversa, so'z zargari sifatida she'riyatida poetik obrazlardan ustalik bilan foydalangan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abdulla Oripov "Shoirning tug'ilishi". - Toshkent: Adabiyot, 2021.
2. Belinskiy B.G. Adabiy orzular. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1977.
3. Belinskiy B.G. Tanlangan asarlar. - Toshkent: O'zbekiston, 1955.
4. Hamdamov U. Davr ruhining she'riyatda aks etishi// O'zbek tili va adabiyoti. - 2001.
5. Rustamov A. So'z xususida so'z. - Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.
6. Umirzoqova Nafisa Tursunovna Usmon Nosir she'riyatida ruhiyat tasviri. Filol.Fan.nom...dis. - Toshkent. 2005.

YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA KUZ OBRAZINING POETIK TALQINI (Usmon Azim she'rlari misolida)

*Madraximova Inobat Bahodirovna - Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi o'zbek she'riyatida kuz obrazining talqini Usmon Azim she'rlari misolida yoritib berilgan va kuz obrazining falsafiy-estetik kategoriyasining Usmon Azim ijodiga ta'siri talqin qilinadi. Unda kuz istiqlol va ozodlikning yorqin ranglari bilan uyg'unlik kasb etishi, inson hamisha o'z millatining kelajagi haqida qayg'urib yashashi muhimligi ifodalanadi.

Kalit so'zlar: obraz, inson, tabiat, kuz, poetik obraz, uslubiy transformatsiya, ibtido

Borliq va yo'qlining ibtidosi va intihosi bo'lganidek, inson o'z olamida tasavvur ham dosh berolmaydigan angamlarni, tushuncha va mohiyatning sir

nimada ekanligiga doim qiziqib yashaydi. O'zini o'rab turgan mavjudlik haqida bilim va tasavvurlarini yanada oshirib borishga, bu sirli jumboq orqasida qanday ilohiy kuch yashirin ekanligiga intilib umr kechiradi. Yaratganning har bir jilvasida – sabab va oqibat turishini, tugal kuni kelib materiyadagi har bir tirik jon borki, o'lim sharbatini totib ko'rishga o'zida kuch topadi. Bu – Allohni bilishga, ungagina itoat qilishga zamin hozirlaydi. Dunyo shoirlari talpinib, intilgan so'qqilar ham bir kun o'z yakuniga yetishini, Allohning fazlu karamisiz biror narsa o'z o'rnidan bir soniya jilmasligini yaxshi tushua boradilar. Tushuncha – insonni ma'nan, ruhan, moddiyan o'stiradi. XX asr tong otariga qadar mumtoz lirikada oshiq va mash'uq obrazi badiiyligini ta'minlashga yozuvchi va shoirlar juda katta izlanishlar olib bordilar. Sonsiz, sanoqsiz obrazlarni yaratdilar. Birgina Alisher Navoiyning o'zi – inson umrini to'rtta faslga ajratib, yashashning mantiqiga xos ism topishga erishdi. Demak, kuz – betimsol, betakror fasl! Uni zakiy va oriflarga yaxshi anglab yetadi. Idrok va muhabbat har qanday masalaga jiddiy javob topishga undaydi.

O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim she'riyatida – insonni o'limga tayyorlash, o'zini anglash, bilish, sezish va his qilib umr kechirish falsafasi ko'z o'ngimizda qizil ip bo'lib o'tib turadi. Shoir boshqalarga o'xshamagan jihati ham shunda qabarib ko'rinadi. O'zining butun borlig'ini kuz atalmish jozib va tillorang moddiyat, ruhiyatga topshirib qo'yganligi, u javhar olamdan katta ma'nolarni kashf qilganligini e'tirof etish joiz. Negaki, shoir uchun kuz – dunyoning eng maqbul programmasi, insonning bu yolg'on olam bilan xayrlashish va uchrashish, chinga qovushish maskanidir.

Adabiyotshunoslik lug'atida uslub haqida shunday yozadi: "Uslub (ar.-tartib, yo'sin, tarz) poetikaning muhim kategoriyalaridan biri; badiiy asarning u yoki bu tarzda shakliyl qurilishini belgilovchi umumiy printsip. U antropologik, ya'ni ijodkor shaxsi bilan bog'liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi. U.da namoyon bo'luvchi ijodiy individuallik badiiy asarning barcha sathlarida (badiiy matnning tuzlishi – ritorika, badiiy voqelikni yaratish printsiplari – poetika) birdek ko'zga tashlanadi. Ya'ni Uslub badiiy shaklning unsuri emas, balki unga xos xususiyatdir. U asardagi shakl unsurlarining o'z holicha emas, balki muayyan qonuniyat asosida yaxlitlikka birikishini belgilaydi." [5] Haqiqatdan ham, she'riy asarda uslub shoir kechinmalarining mantiq bilan uyg'unlikda namoyon bo'lishini, syujet va kompozitsiyaning bir maxrajda birikuvini dalolatlaydi. Ayniqsa, kechinma tabiiy va haqqoniy idrok etilishi ko'pincha uslubiy ishlanganlik darajasi bilan bog'liq kategoriyadir. She'riy nutq shoir olamining tasavvurda namoyon bo'lgan ko'rinishi, sifati va shakli, mazmunini keltirib chiqaradi. Demak, uslubning davomiyiligi, asardan-asarga qadar o'sib, mohiyatni to'laqonli aks ettirish manerasi ekanligini ham kafolatlaydi:

Boysunga ham kuzak kelgandir.

Tog'lar bu kun o'sishdan to'xtab,

Silkinmasdan yig'layotgandir —

Selda ketgan bir toshni yo'qlab.[4]

Shoir o'zi tug'ilib o'sgan so'lim tog' bag'ridagi go'sha –Vatanini qo'msaydi. Bo'ysunda kechgan bolaligi umri bino bo'lib, hayotning mantiqini anglab yetganligi, kuzning kelishi, o'tgan xotirotlarni qayta idroklashga keng imkon bermoqda. She'rdagi uslubiy o'ziga xoslik haqiqatdan ham umr intihosida bu dunyoning siru asrorini anglashi nazarda tutilmoqda. Kuz ijodkorga benihoya katta bir tasvir maydonining formulasini chizib bermoqda. Kuz – dunyoda yashayotgan har bir insonning savollar qarshisida javob berishga intilishi, mohiyatni anglashi, bu anglashlar ruhiyatning samoga parvozini ham dalolatlashga xizmat qiladi. Rus munaqidi Vissarion Belinskiy: “Olamdagi narsalar beadam va xilma-xildir, lekin ularda ma'lum mushtaraklik bor va ularning barchasi umumning ju'ziy ko'rinishlaridir. Mana shuning uchun ham falsafa birgina yagona umumiylik mavjuddir, deb aytadi. Hayot to'la ko'krakning nafas olishi ju'ziy ko'rinishidir. Odamlar tug'iladilar – o'ladilar, keladilar – ketadilar, ammo hayot hech qachon o'lmaydi, hech qachon yo'qolmaydi. Okeanda to'lqinlar bunyod bo'ladi, to'lqinlar to'lqinlarni quvadi, to'lqinlar to'lqinlar bilan almashinadi, lekin okean hamon o'sha ilgarigiday buyuk va teran, o'zining tubsiz va poyonsiz maskanida barqaror turaveradi. Uning billur tomchilrida esa porloq quyosh yog'dusi hamon tantanovar aks etaveradi, beadam yulduzlar sochilgan tungi osmon o'sha ilgarigiday uning siynasida titrab, chayqalaveradi” [1] Binobarin, munaqqid V.Belinskiyning – adabiy orzusi ham insonning nomukammalligidan mukammallik sari intilib yashash oraliq'ida kechayotgan umrining yorqin namunasi. Insonning botiniy olami tashqi olam bilan uyg'unlashgandagina bu hayot mantiqini to'laqonli anglash darajasiga ko'tarila boradi. Usmon Azim – kuz obrazidan katta bir umumlashma manzumalar yarata oldi. Poetik obraz tashuvchi yaproq, xazon, daraxt, mezon va shunga o'xshash tasvir predmetlari shoir uslubining yanada teranlashuviga hamda alohida xususiyatlarni yuzaga chiqishiga keng yo'l ochdi:

Bo'shat, qismat, bo'shatgin dastni!

Umr keldi qirqni qoralab.

Boysun tomon ketsam bo'lmasmi,

O'tkirguncha xazon oralab?

Tan — jonimda,

Jon — tanimda yo'q...

O, sog'inchga to'ldim men buncha!

Yo'q, Boysunni sog'inganim yo'q,

Tangrim, seni tanigunimcha.[3]

Shoir qirq yoshga kelib, Allohni tanish haqida juda chuqur mushohada yuritarkan, Bo'ysunga borishdan oldin o'zining qismatini ko'z o'ngida tasavvur qilishga intiladi. Xazonni oralab borish – Allohni tanish deb tushunadi. Deylik, u qishloqning ibtidosi – tug'ilish, o'zining sohir va beg'am bolaligi deb bilsa, ana shu jarayonda shaharda topgan javharlarini ham juda teran anglashga o'zida qandaydir bir umid topadi. Muhabbat – shoir olamini keskin ziddiyatlarga ro'baro' qiladi.

Bebaxtlikda bu kuzak baxtli!—

Tabiat ham qismatga ko'nar.

Bugun hamma-hamma daraxtni
Quchib-quchib yig'lasam bo'lar.
Vazminlik bor ular o'yida,
Vaqt oldida fidoyilik bor.
Xazonrezning g'amgin to'yida
Hasrat bergan xudoyilik bor.[2]

Usmon Azimning juda ko'plab she'rlarida kuz obrazi uslubiy transformatsiya vazifasini bajaradi. Deylik, shoir o'zini juda yolg'iz his qiladi. Uning gaplashadigan habibi, do'sti va suhbatdoshi – kuzgi chiriyotgan xazonlardir. Mavjudlikning ibtidosi ham intihosi ham yetib keladigan manzilu makon shoir nazdida – kuz! U kuzga hayrat va mehrga to'lmagan ko'ngil mashvarati deb qaraydi. “Bugun hamma-hamma daraxtni// Quchib-quchib yig'lagim kelar” deydi shoir. Mana shu quchib yig'lash orqali yaqinlarini, o'zining butun insoniyatni ulkan muhabbat bilan sevishini idroklamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Т.: “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1977. –Б. 95.
2. Усмон Азим. Сайланма. –Т.: “ШАРҚ”. 1995. –Б.395.
3. Усмон Азим. Сайланма. –Т.: “ШАРҚ”. 1995. –Б.397.
4. Усмон Азим. Сайланма. –Т.: “ШАРҚ”. 1995. –Б.397.
5. Куронов Д., Мамажанов З. Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: “Akademnashr”. . –Б. 341.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI LOYIHALASH KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI *Bekchonova Shoira Bazarbayevna - Yangi asr universitetidotsent, PhD, Ilmiy rahbar,*

Tojiyeva Go'zal Saodatovna- Xalqaro Nordik universiteti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilar uchun kasbiy ta'limni loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish metodologiyasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, metodologiya, bo'lagak o'qituvchi, kompetensiya, faoliyat.

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilar uchun kasbiy ta'limni loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalardan foydalanish, hamkorlikda o'rganish va aks ettirish amaliyotlarini birlashtiradigan kompleks yondashuvni talab qiladi. Samarali o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun quyidagi asosiy fikrlar mavjud:

Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna	ONA TILI FANINI O'QITISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	171
Abdullayeva Mahliyo Axrorovna	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TARBIYALANUVCHILARNI TARBIYALASHDA QO'LYOZMALARNING O'RNI	177
Umarova Nuriniso Rahimovna	ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR	179
Madraximova Inobat Bahodirovna	YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA KUZ OBRAZINING POETIK TALQINI (Usmon Azim she'rlari misolida)	183
Bekchonova Shoir Bazarbayevna, Tojiyeva Go'zal Saodatovna	RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI LOYIHALASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI	186
Yo'lchiboyeva Nilufar Dilshod qizi	YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI KITOBXONLIKKA JALB ETISH VA KITOBXONLIK MADANIYATINI OSHIRISH	188
Qodirova Nargiza Muxtarovna	TARIX FANI DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	191
Ne'matullayev Azizjon Nurullayevich	BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	194
Qolandarova Dilafroz Karimovna	XVIII asr Xorazm adabiy muhiti va dostonchilik an'analari.	199
Normurodova Nigora Erkin qizi	O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISHDA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH	201
S.M.Pulatova	ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI SENSOR JIHATDAN RIVOJLANISHI.	204
Tagayev Qoldibek Koldorbek o'g'li	TA'LIM JARAYONIDA VIRTUAL BORLIQ(VR) VA TO'LDIRILGAN BORLIQ(AR) TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	208
G'ulomova Muxarram Nurkamol qizi	RAQAMLI MUHITDA ARTTERAPIYAVA SAN'ATNING TUZILISHI.	212